

MILLIY QADRIYATLAR MILLAT IFTIXORI

Marifaliyeva Firdavsxon

*O'zbekiston Xalqaro Islomshunoslik Akademiyasi
Islomshunoslik fakulteti Dinshunoslik yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada milliy qadriyatlarning jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Unda qadriyatlarning tarixiy ildizlari, ularning xalqimiz ma'naviy dunyosini shakillantirishdagi ta'siri hamda yosh avlod tarbiyasida tutgan o'rni yoritilgan.

Shuningdek milliy urf odatlar, an'analar, madaniy meros va ularning bugungi kunda asrab – avaylanishi hamda rivojlantirishi masalalari ko'rib chiqilgan. Maqolada milliy qadriyatlarni asrab avaylash, ularni zamonaviy hayotga moslashtirish va kelajak avlodga yetkazish bo'yicha taklif va tavsiyalar ham berilgan.

Kalit so'zlar: Qadriyat, milliy urf – odat, jamoa, zamonaviy hayot, globalizatsiya.

Qadriyat – bu inson, jamiyat yoki biror guruh uchun muqaddas, aziz qadirlanadigan tushuncha hisoblanadi. Oddiy qilib aytganda qadriyatlar odamlarning hayotiga ma'no beradigan yohud ularni malum maqsadga yo'naltiruvchi yo'l hisoblanadi. Ya'ni qadriyat inson va jamiyatni birlashtiruvchi, ularni turmush tarzini belgilovchi mezondir.

Qadriyatlar ham turli guruhlariga bo'linadi. Ular umuminsoniy, milliy, ma'naviy, oilaviy qadriyatlar. Umuminsoniy qadriyatga tinchlik, adolat, erkinlik, mehr-oqibat.

Milliy qadriyatlar til, urf-odatlar, bayramlar, milliy kiyimlar shular jumlasidan. Ma'naviy qadriyat halollik, vatanparvarlik, sadoqat kabi tushunchalar bilan ifodalanadi. Yuqorida sanab o'tilgan bir qancha qadriyatlar va ularning turlari jamiyatda katta ahamiyatga ega, ularning har birini o'z o'rni bor. Bularning ichida oilaviy qadriyat jamiyatning eng asosiy bo'g'ini hisoblanadi.

Oilaviy qadriyat bu- oila a'zolari orasidagi munosabatlarni mustahkamlovchi avloddan avlodga o'tib keladigan, oila hayotining ma'naviy va ma'rifiy asoslarini belgilaab beruvchi qadriyatdir.

Ular o'zaro mehr muhabbatni, mas'uliyat va sadoqatni, oila sha'ni va obro'sini saqlashni, milliy urf-odat va an'analarni davom ettirish kabi masalalarni o'z ichiga oladi.

Millat faxri bu – ibora odatda xalqning eng ulug', eng yuksak qadirlanadigan insonlari yohud tarixiy ma'naviy merosini, g'ururini ifodalovchi shahslarga yoki uning tarixini aks ettiruvchi qo'llanmalarga aytiladi.

Ayni bir millatning eng qadimdan qolgan urf odatlari va qadriga ega bo'lgan odatlari bularga misol bo'ladi.

“Milliy qadriyatlar – bu bizning tariximiz, tilimiz, urf odatimiz va an'alarimizdir. Kimki o'z qadriyatlarini asrab avaylasa u hech qachon ma'naviyatsiz bo'lib qolmaydi”. Mustaqillik tufayli biz ajdodlarimiz qoldirgan boy merosini tiklash, milliy qadriyatlarimizni qayta tiklash imkoniga ega bo'ldik. Bu esa xalqimizning eng katta boyligidir.

Milliy qadiryatlarni asrab avaylash yoshlar tarbiyasining ma'naviy barkamollikning eng muhim shartidir.

Yana bir asosiy qadiryatimiz bu bizning ona tilimiz, ma'naviy qadiryat sifatida u xalqimizning tafakkuri, madaniyati, tarixiy xotirasini saqlab keladi. Milliy o'zlik ramzi xalqni xalq, millatni millat qiladigan asosiy belgilaridan biri bu tildir.

Avlodlar o'rtasidagi ko'prik-bilim, urf-odat, tarix va qadiryatlar til orqali keying avlodlarga o'tadi. Til atrofida jamiyat birlashadi, milliy birlik kuchayadi.

Ona tilimiz- ma'naviy va milliy qadiryatlarimizning eng muhimlaridan biri hisoblanadi.

Milliy qadiryatlar xalqning ma'naviy ildizi va kelajak taraqqiyotining tayanchi sifatida ko'riladi. "Milliy qadiryatlarimiz va urf odatlarimizni e'zozlash, ularni hayotimizning ajralmas qismi sifatida asrash jamiyatimizni mustahkamlashning eng muhim omillaridan biridir.

"Ajdodlarimiz qoldirgan bebaho merosni chuqur o'rganish, milliy o'zligimizni anglash va qadiryatlarimizning kelgusi avlodlarga yetkazish barchamizning muqaddas vazifamizdir."

O'zbekiston mustaqillikga erishgach milliy qadiryatlarimizni tiklashga va ularni rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Buyuk ajdodlarimiz Amir Temur, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek kabi siymolar merosi qayta o'rganila boshlandi. Yoshlarni milliy g'urur va iftixor ruhida tarbiyalashning eng muhim omiliga aylandi.

Yana bir azaliy qadiryatlarimizdan biri bu atlasu adraslarimiz hisoblanadi. Xalqimizning uzoq o'tmishini ifoda etuvchi, qadimiy an'analar va estetik dunyo qarashni o'ziga hos xususiyatlarini o'ziga mujassamlashtirgandir.

Bugungi kunda mana shu uzoq tarixni bosib o'tgan ajdodlarimiz mafkurasi va dunyo qarashi haqida so'zlaydigan milliy liboslarimizni saqlab qolish va targ'ib qilish milliylikimizni saqlab qolish demakdir.

Xalqimiz asrlar davomida ilm - ma'rifatni yuksak qadirlab kelgan. Ilm olmoq har bir musulmonga farzdir degan g'oya yoshlarni ilm olishga kitobxonlikka ustozga hurmat bilan qarashga chorlaydi. Shuningdek adabiyotlarimizdagi asarlar Navoiy g'azallari, Beruniy, Ibn Sino, Ulug'bek merosi milliy ma'rifiy qadiryatlarimizning abadiy timsolidir.

O'zbek xalqining hunarmandchiligi dehqonchiligi, chorvachiligi, bog'dorchiligi qadimdan qadirlanib keladi. Qo'li gul ustalar yasagan gilamlar, do'pillar, kashtalar va kulolchilik buyumlari milliy qadiryatlarimizning yorqin namunasi hisoblanadi. "Mehnat-baht kaliti" degan xalq maqoli ham qadimiy mehnat qadiryatlarimizni ifodalaydi.

Asrlar davomida shakillangan bu qadiryatlarni dunyo tan ogan. Bularni hatto g'arb olimlari ham o'rganishmoqda. Shuningdek yurtimizdagi bir qancha tarixiy obidalarimizni va tarixdan qolgan yodgorliklarimizni o'rganib chiqishmoqda. Ularni ko'rish uchun turli yurtlardan kelishmoqda. Yurtimizning har bir joylari e'tirofga sazovor hisoblanadi. Bular sarasiga Samarqand, Buxoro, Xorazim, Qo'qon, Qashqadaryo, Surxondaryo kabi bir qancha tarixiy yodgorliklari bor joylar jahondan kelgan mehmonlarning e'tiboriga tushmoqda. Bu esa yurtimizda tarixiy obidalarimizga chet ellik sayyohlarimizni qiziqishini ortiradi. Shu kabi qadiryatlarimiz yurtimizning jahon miqiyosida o'rnini aniqlab beradi.

Bu nafaqat bizga meros balki ota bobolarimizdan qolgan kelajak avlod uchun ham asrashimiz kerak bo'lgan ne'matdir. Shular jumlasidan xalqimizning asrlar davomida shakllangan ma'naviy boyligini kelajak avlodga yetkazishimiz zarur.

Madaniy qadiryatlar sarasiga milliy musiqamiz maqom, dutor, doira. Milliy raqslarimizga lazgi, andijon polkasi, xalq og'zaki ijodi maqollar topshmoqlar dostonlar shular jumlasidan . Bu kabi milliy meroslarimizni asrab avaylab kelajak avlodga yetkazish zarur.

Umuman olganda, milliy qadiryatlarimiz xalqimizni millat sifatida birlashtiradigan tarbiyalaydigan va ma'naviy quvvat beradigan boylikdir.

Eng ulug' qadiryat bu – vatanga muhabbatdir. Ajdodlarimizdning yurt ozodligi uchun kurashlari, istiqloлга erishish yo'lidagi mashaqqatlari xalqimizning milliy g'ururi va faxridir. Bugungi kunda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash milliy qadiryatlarni asrashning eng muhim vazifasidir.

Milliy qadiryatlar – bu xalqning tarixiy xotirasi ma'naviy merosi va madaniy boyligidir. Ular jamiyatni birlashtiruvchi, yoshlarni tarbiyalovchi , insonni komilikka yetaklovchi kuchdir. Milliy qadiryatlarni asrab avaylash ularni zamonaviy hayotga uyg'unlashtirish globalizatsiya sharoitida milliy o'zlikni saqlash bugungi kunni ilmiy va amaliy vazifalaridan biridir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, “Milliy qadiryatlarimizni asrab avaylash va ularni kelgusi avlodlarga yetkazish xalqimizning ma'naviy yuksalishida eng muhim vazifalardan biridir”.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma'naviyat va ma'rifat” sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori. – Toshkent, 2017.
4. Yo'ldoshev Q. Ma'naviyat asoslari. – Toshkent: Ma'naviyat, 2010.
5. Jo'rayev M. O'zbek xalqining ma'naviy qadriyatlari. – Toshkent: Fan, 2011
6. Qodirov A., To'raqulov N. Milliy qadriyatlar va zamonaviylik. – Toshkent: Akademiya, 2019.